E.G‘. G‘OZIYEV IJODIDA TAFAKKUR PSIXOLOGIYASI MUAMMOLARI: ZAMONAVIY TIBBIY-PSIXOLOGIK TALQIN

Melibayeva R.N.

ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИИ МЫШЛЕНИЯ В НАУЧНОМ НАСЛЕДИИ Э.Г. ГАЗИЕВА: СОВРЕМЕННАЯ МЕДИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Мелибаева Р.Н.

PROBLEMS OF THE PSYCHOLOGY OF THINKING IN THE SCIENTIFIC HERITAGE OF E. G. GAZIEV: A MODERN MEDICAL AND PSYCHOLOGICAL INTERPRETATION

Melibayeva R.N.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Научное наследие профессора Э.Г. Гозиева в области психологии мышления, сыгравшего важную роль в развитии психологической науки в Узбекистане, проанализировано с позиций современных медико-психологических подходов. Исследования ученого, посвящённые процессам обобщения, операциям мышления, механизмам переноса знаний, а также проблемам умственного развития учащихся, систематизированы по содержательным, статистическим и терминологическим аспектам.

Ключевые слова: *психология мышления, обобщение, перенос знаний, психическое здоровье, когнитивное развитие, медицинская психология, экспериментальная педагогическая психология.*

This article analyzes the scientific heritage of Professor E. G. Gaziev in the field of the psychology of thinking, who played a significant role in the development of psychological science in Uzbekistan, from the perspective of modern medical and psychological approaches. The scholar's studies devoted to the processes of generalization, thinking operations, mechanisms of knowledge transfer, and the mental development of students are systematized in terms of their substantive, statistical, and terminological aspects.

Key words: *psychology of thinking, generalization, transfer of knowledge, mental health, cognitive development, medical psychology, experimental educational psychology.*

Обзоры

O‘zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi milliy ilmiy maktablar shakllanishi bilan uzviy bog‘liq. Ana shunday ilmiy maktablardan biri psixologiya fanlari doktori, professor E.G‘. G‘oziyev nomi bilan bog‘liq bo‘lib, uning tadqiqotlari kognitiv jarayonlar, tafakkur rivojlanishi va shaxs kamoloti masalalarini kompleks o‘rganishga qaratilgan

Professor E.G‘. G‘oziyev tafakkurni faqat nazariy kategoriya sifatida emas, balki ta’lim, shaxs rivojlanishi va psixik salomatlik bilan bog‘liq dinamik jarayon sifatida talqin etgan. Shu jihatdan uning ilmiy merosi bugungi kunda tibbiy-psixologik tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi [6,7].

Maqolaning maqsadi – professor E.G‘. G‘oziyevning tafakkur psixologiyasi sohasidagi ishlarini mazmuniy va statistik tahlil qilish hamda ularning zamonaviy psixik salomatlik konsepsiyasidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotda kontent-tahlil, bibliometrik tahlil, tizimli tahlil terminologik tahlil usullardan foydalanildi:

Olimning boy ilmiy, ijodiy ishlarini o’rganish va tahlil qilish natijalarimizga tayanib shuni aytish mumkinki, Professor E.G‘. G‘oziyev ilmiy merosi kognitiv psixologiya, ta’lim psixologiyasi va psixik salomatlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib bergan milliy ilmiy maktab sifatida baholanishi lozim [4].

Natijalar va tahlil: Jahon psixologiyasida tafakkur muammosi Vigotskiy, Leontyev, Davidov, Rubinshteyn kabi olimlar tomonidan faoliyat va ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda talqin qilingan. Professor E.G‘. G‘oziyev mazkur yondashuvlarni milliy ta’lim tizimi va o‘quv jarayoni bilan integratsiya qilgan. Uning tadqiqotlarida tafakkur operatsiyalari, umumlashtirish mexanizmlari, bilimlarni ko‘chirish, intellektual rivojlanish markaziy o‘rin egallaydi. Bu yondashuvlar kognitiv fleksibillik, kritik fikrlash va adaptatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tahlillarimizga ko‘ra, G‘oziyev nazariyasi bugungi kunda emotsional intellekt va kognitiv reziliyentlikni rivojlantirish konsepsiyalariga yaqin [3,6-8].

Professor E.G‘. G‘oziyevning ilmiy merosi tahlili shuni ko‘rsatadiki, olim tafakkurni faqat kognitiv jarayon sifatida emas, balki shaxsning psixologik barqarorligi, emotsional muvozanati va adaptiv faoliyatini ta’minlovchi integrativ regulyativ mexanizm sifatida talqin etadi. Uning konsepsiyasida tafakkur shaxsning ichki psixik tizimida markaziy funksiyani bajaradi, ya’ni bilish, motivatsiya, iroda va emotsional jarayonlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlovchi dinamik tizim sifatida ko‘riladi.

2000-2020 yillardagi E.G‘. G‘oziyevning ilmiy faoliyati barqaror ekanini nashrlar dinamikasi ko‘rib chilgan. Ilmiy maqolalar va o‘quv-uslubiy ishlar parallel ravishda olib borilgani olimning nazariyani ta’lim va amaliyot bilan bog‘lash strategiyasini anglatadi (jadval).


Jadval

Professor E.G‘. G‘oziyev ilmiy ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi (2000-2020 yy.)

Yillar	Ilmiy maqolalar	Darslik/o‘quv qo‘llanma/uslubiy ishlar	Monografiyalar
2000-2004	16	9	-
2005-2009	15	11	1
2010-2014	12	8	1

2015-2020	15	6	-
Jami	58	34	2

Ushbu dinamika ontogenez va tafakkur muammolari bo‘yicha fundamental “baza” yaratilganini, keyingi bosqichlarda esa ijtimoiy-psixologik qiyofa, destruktiv xulq, reabilitatsiya kabi masalalar orqali psixik salomatlik diskursiga chiqilganini anglatadi (rasm).



Rasm. Professor U.G‘. G‘oziyevni ilmiy ishlar taqsimoti.

Jurnallarda chop etilgan maqolalarida dolzarb muammolar tezkor ilmiy muhokamaga chiqarilgan. Anjuman materiallari olimning ilmiy muloqotda faolligini, yangi g‘oyalarni sinovdan o‘tkazish va tadqiqot traektoriyalarini kengaytirishini ko‘rsatadi. Darslik va qo‘llanmalar esa umumiy psixologiyik, ontogenez, tafakkur va бошқа психологиянинг долзарб соҳаларига бағишланган қатор bazaviy masalalarni тизимлаштириш orqali psixik salomatlikka oid keyingi talqinlar uchun metodologik va terminologik asos vazifasini bajaradi. Monografiyalar эса konseptual umumlashtirish bosqichini ifodalaydi.

G‘oziyevning mazkur yondashuvi zamonaviy kognitiv psixologiya va tibbiy psixologiyadagi integrativ konsepsiyalar bilan uyg‘un keladi. Jumladan, olimning umumlashtirish, **bilimlarni ko‘chirish** (transfer of learning), tafakkur operatsiyalari va aqliy taraqqiyotga oid tadqiqotlari shaxsning stressga chidamliligi, kognitiv barqarorligi va ijtimoiy adaptatsiya darajasi bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Olim ta’kidlaydiki: “Umumlashtirish jarayonlari shaxsning bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini ta’minlaydi hamda faoliyat samaradorligini oshiradi”. Bu fikr zamonaviy хулқ-атвор (kognitiv-povedensial) terapiyaси nazariyasi bilan uyg‘un bo‘lib, unda fikrlashning qayta tashkil etilishi (cognitive restructuring) emotsional barqarorlikni ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida qaraladi [1,2]. Shuningdek, G‘oziyev ta’kidlaydi: “Tafakkur operatsiyalari rivojlangan shaxs murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilishda mustaqillik va barqarorlikni namoyon etadi” [3,8,10].

Bu holat psixologik salomatlik konsepsiyasida “kognitiv fleksibillik” tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, u stress, depressив va хавотирlik holatlariga qarshi psixologik immunitet vazifasini bajaradi.

Zamonaviy tadqiqotlar ham kognitiv jarayonlar va psixik salomatlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasdiqlaydi. Xususan, mindfulness asosidagi kognitiv terapiya depressiyaning retsidivini kamaytirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan. Bu usul insonning fikr va his-tuyg‘ularini kuzatish orqali kognitiv reaktivlikni pasaytiradi va emotsional barqarorlikni oshiradi.

Bu jihatdan qaralganda, G‘oziyevning tafakkurni regulyativ mexanizm sifatida qarashi zamonaviy psixoterapevtik amaliyot uchun nazariy asos vazifasini o‘taydi [10,11].

Muallif nuqtai nazaridan, professor E.G‘. G‘oziyevning ilmiy merosi milliy psixologiya fanini institutsionallashtirgan, kognitiv psixologiya va ta’lim psixologiyasi integratsiyasiga asos bo‘lgan, zamonaviy psixik salomatlik konsepsiyalariga nazariy baza yaratgan, O‘zbekiston ta’lim tizimida kognitiv rivojlanishga yo‘naltirilgan yondashuvlarni shakllantirgan [5,6].

Xulosa

1. Shunday qilib, professor E.G‘. G‘oziyevning ilmiy merosi zamonaviy psixologiya va tibbiyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Olimning tafakkur, umumlashtirish va bilimlarni ko‘chirishga oid tadqiqotlari psixik salomatlikning kognitiv asoslarini ochib beradi, stress va psixosomatik kasalliklarni profilaktika qilishga xizmat qiladi, reabilitatsiya va kognitiv tiklanish jarayonlarini takomillashtiradi.

Tahlillarimizga asoslangan holda:

- neyrokognitiv buzilishlarni erta diagnostika qilishga imkoniyat yaratadi;
- zamonaviy psixoterapiya va ta’lim integratsiyasi uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi;
- E.G‘. G‘oziyev konsepsiyasi O‘zbekiston psixologiyasida kognitiv-sog‘lomlashtirish paradigmasining shakllanishiga zamin yaratgan muhim ilmiy maktab sifatida baholanadi, deyish mumkin.

Adabiyotlar

1. Мелибаева РН. Из истории вопроса экспериментального исследования мышления в трудах психологов советского периода. International scientific review of the problems and prospects of modern science and education. 2018:125-7.
2. Мелибаева РН. Клиник амалиётда когнитив функциялар ва уларнинг бузилишлари психодиагностикаси. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022;2(4-2):928-32.
3. Мелибаева РН. Талабалар тафаккурини ривожлантиришда ўқув машғулотларининг ўрни. Psixologiya 2019:35-40.
4. G‘oziyev E. Psixologiya metodologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2002:172.
5. G‘oziyev EG‘. Muomala psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent Universitet 2001:144.
6. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya: darslik. 1-jild. Toshkent 2002.
7. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya: darslik. 2-jild. Toshkent 2002.
8. Gaziyev EG. Formirovaniye i perenos priyomov obobsheniya. Vip. IV, UzNIIPN. Tashkent 1973:60-71.
9. Ғозиев Э.Ф. Онтогенез психологияси. Ўқув қўлланма. Тошкент Ўқитувчи 2004:320.
10. Ғозиев ЭФ. Тафаккур психологияси. Тошкент 2010:256.
11. Ғозиев ЭФ. Шахс психологияси ва ривожланиш муаммолари. Тошкент Фан 2008:280.

E.G‘. G‘OZIYEV IJODIDA TAFAKKUR PSIXOLOGIYASI MUAMMOLARI: ZAMONAVIY TIBBIY-PSIXOLOGIK TALQIN

Melibayeva R.N.

Mazkur maqolada O‘zbekiston psixologiya fanining rivojlanishida muhim o‘rin tutgan professor E.G‘. G‘oziyevning tafakkur psixologiyasiga oid ilmiy merosi zamonaviy tibbiy-psixologik yondashuvlar nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Olimning umumlashtirish jarayonlari, tafakkur operatsiyalari, bilimlarni ko‘chirish mexanizmlari hamda o‘quvchilar aqliy taraqqiyotiga oid tadqiqotlari mazmuniy, statistik va terminologik jihatdan tizimlashtirildi.

Kalit so‘zlar: *tafakkur psixologiyasi, umumlashtirish, bilimlarni ko‘chirish, psixik salomatlik, kognitiv rivojlanish, tibbiy psixologiya, eksperimental pedagogik psixologiya.*

Muallif haqida ma’lumot

Melibayeva Ruzaxon Nasirovna, TDTU pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari doktori, professori (DSc). Tel: +998909277534, e-mail: ruzakhon7534@gmail.com, https://orcid.org/0000-0002-4470-3029